

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV KOMILJON ABDUG‘ANIYEVICH

**ADABIY TA‘LIM JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN
FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI
(Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari yuqori sinf va akademik litsey adabiyot
darslari misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Contents of the abstract of the doctoral dissertation (DSc)

Abdullayev Komiljon Abdug‘aniyevich

Adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari (Umumiy o‘rta ta’lim maktablari yuqori sinf va akademik litsey adabiyot darslari misolida)..... 3

Абдуллаев Комилжон Абдуганиевич

Научно-методические основы использования междисциплинарной интеграции в процессе литературного образования (на примере уроков литературы в старших классах средних общеобразовательных школ и академических лицеях)..... 33

Abdullaev Komiljon Abduganievich

Scientific-methodical basis of using interdisciplinary integration in the process of literary education (in the example of upper grades of secondary schools and academic lyceum literature classes) 69

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 74

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV KOMILJON ABDUG‘ANIYEVICH

**ADABIY TA‘LIM JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN
FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI
(Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari yuqori sinf va akademik litsey adabiyot
darslari misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (Dsc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Ped255 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Homidov Hamidjon

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matchonov Sapa Murodovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Egamberdiyeva Turg‘unoy Axmadjonovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini

Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil “10” XII soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12, (+99869) 228-85-01; Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1617 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “29” XI kuni tarqatildi.
(2024-yil “29” XI dagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Ya.Sodikov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash raisi,
f.f.d. (DSc), professor

I.O‘.Darvishov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.f.f.d. (PhD), dotsent

T.Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, s.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jadal kechayotgan globallashuv jarayoni ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim samaradorligiga erishishning muhim omili ekanligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, BMT ning "Ming yillik deklaratsiyasi" (VN "Millennium Deslaration"), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum)ga tegishli xalqaro hujjatlarda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD)ning (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS), Trends in International Mathematics and Science Study –TIMSS), The Programme for International Student Assessment – PISA), The Teaching and Learning International Survey – TALIS) xalqaro baholash dasturlarida ta'lim jarayonida integrativ yondashuv ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish, xususan, o'quvchilarga asosiy nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlaridan fan va amaliyot, madaniyat, ishlab chiqarishning murakkab topshiriqlarini hal qilishda foydalanish, dunyo hodisalarini chuqurroq bilish, ularni o'zaro bog'liqlik va yaxlitlikda tushunish ko'nikmalarini tarbiyalash, kasbiy hamda tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish orqali raqobatbardosh kadrlarga xos sifatlarning kamol topishini ta'minlashga xizmat qilishi belgilangan.

Dunyo mamlakatlarining yetmish foizi ta'lim tizimida integrativ yondashuvga asoslangan o'quv dasturi va darsliklaridan foydalanib kelmoqda. Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uells, Gong-Kong, Germaniya, Niderlandiya, Irlandiya, Vengriya, Koreya va Shveysariyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlarida ta'limning tur va fanlararo integratsiyasini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlarni intellektual salohiyatli, kreativ fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy fazilatlar mujassamlashgan har tomonlama barkamol shaxslar etib voyaga yetkazishda ta'lim tizimi, jumladan, adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning aniq ilmiy xulosa va natijalarga tayangan ilmiy-metodik asoslarini belgilash, integrallashgan dastur va darsliklar yaratish, innovatsion dars shakllari va texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yoshlarni kreativ, mantiqiy tafakkur va nostandart, intellektual qobiliyat egalari hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashda adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya ta'lim natijaviyligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr, sport, kompyuter texnologiyalari va internet, adabiyot, kitobxonlikka qiziqtirish masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilganligi¹, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va

¹ Мирзиёев Ш.М. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 19 мартдаги видео-селектор ййғилишида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил 20 март.

ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan "Tarbiya" fanining joriy qilinganligi², "2020-2025-yillarda ijod maktablari faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi" qabul qilinganligi³, bulardan tashqari, ona tili va adabiyotdan mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan badiiy asarlar va fanga oid chizmalik test topshiriqlari sonini ko'paytirish ustida izlanishlar davom ettirilayotganligi fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish orqali umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik litseylarda adabiyot fanini o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlash hozirgi kunning eng dolzarb masalalari ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabrdagi PF-5815-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 30-sentyabrdagi PQ-4467-son "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.⁴

Jahondagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, intellektual salohiyatini qaror toptirishda, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda globallashtirish sharoiti bilan bog'liq gumanitar fanlar integratsiyasining metodologik asoslari, zamonaviy texnologiyalarining nazariy va amaliy muammolari, pedagogik-psixologik xususiyatlari jihatdan YUNESKO ning

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. №422. 06.07.2020 йил. Умумий ўрта таълим муассасаларида "Тарбия" фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида.

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 240-сон қарори. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Президент, ижод ва иxtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish b'uyicha q'ushimcha chora-tadbiirlar t'ug'risida. Toshkent sh., 2020 йил 18 апрель.

⁴ Mazkur kismni e'zishda kuyidagi manbalarga suyaniildi: Integration of Literature in English Language Teaching Learners Attitudes and Opinions All content following this page was uploaded by Sami Hussein Hakeem Barzani on 14 September 2021; O.A. Волкова. Литература в интеграции дисциплинами гуманитарного цикла. Казань, 2014; <https://www.researchgate.net/publication/319207977> Integration Information Literacy Education into the Curriculum at the Universiti of Tampere Finland; https://helda.helsinki.fi/bitstream/handle/10138/340084/hanpaniemi_janni_dissertation_2022; <http://www.educationengland.org.uk/articles/Obintegrated.html>; <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-030-27443-b>.

“Ta’lim barcha uchun” (Education For ALL) global harakatining “Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Milleennium Development Goals VDGs)” dasturlari, Finlandiyaning Tampere universiteti, fanlararo integratsiyaning milliy va xorijiy tillar ta’limidagi, xususan, o’quv dasturlari o’rtasidagi aloqadorlikni aniqlashda kontent tahlil va talqindan foydalanishning metodologik asoslari Madridning Komplutense (Ispaniya), Yokogam (Yaponiya) xalqaro gumanitar fanlar universitetlari, Rossiyaning Volgabo‘yi xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash hududlararo hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti (O‘zbekiston) kabi nufuzli ta’lim muassasalari metodist olimlari tomonidan samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Uzluksiz adabiy ta’lim tizimida fanlararo integrativ yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: oliy va o’rta adabiy ta’lim tizimida fanlararo integratsiyaning o‘zlikni anglash: naqliy va aqliy tarbiyaning islomiy mohiyati tadqiq qilingan (G‘ozi universiteti, Anqara ijtimoiy fanlar universiteti); umumta’lim maktablarida integratsiyalashgan yondashuvning ijtimoiy-madaniy hamkorlikka oid pedagogik xususiyatlari o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi asoslangan (Xelsinki universiteti); fanlararo integratsiya gumanitar fanlar sikli misolida tizimlashtirilgan (Qozon federal universiteti); fan va adabiy ta’lim integratsiyasining milliy modeli yaratilgan (L.N.Gumelev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti); umumiy o’rta ta’lim maktablari adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan (Namangan davlat universiteti).

Jahonda adabiyotni boshqa fanlar bilan integratsiyalab o‘qitish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: o‘quvchilarni tabiiy muhit bilan tanishtirishga oid integratsiyalashgan o‘quv dasturlari, muqobil darsliklar yaratish, atrof-olam haqidagi bilimlar xususida yaxlit bilim berish maqsadiga qaratilgan integratsiyalashgan ta’lim shakllari, xususan, blok darslar, mutolaa kurslari tashkil etish, borliqni ijodiy idrok etish va anglashda barcha fanlarning ilmiy asoslari uyg‘unligini o‘zaro aloqada o‘rganish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda adabiyot o‘qitish metodikasiga doir salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliyev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, Ye.Abduvalitov, K.Yusupov, N.Yuldasheva va boshqa metodist olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘rganilayotgan muammo doirasida o‘rni bilan fanlararo integratsiyadan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish muammosini yoritishga doir bir necha tadqiqot va metodik qo‘llanmalar mavjud. Jumladan, A.Zunnunov va A.Aliyevlarning “Adabiyotni boshqa gumanitar fanlarga bog‘lab o‘rganish” nomli metodik qo‘llanmasi ilk manba sifatida muhim bo‘lib, unda fanlararo integratsiyaning mazmuni, unga xos xususiyatlar, fanlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilgan darslarning odatdagi mashg‘ulotlardan farqlanishi haqida fikr yuritilgan. Adabiyotni ona tili, tarix, geografiya, jamiyatshunoslik, tasviriy san’at va musiqa bilan bog‘lab o‘rganish haqida umumiy metodik tavsiyalari ko‘rsatilgan. B.Fozilovanning tadqiqot ishida adabiyot va ona tili predmetlarini o‘zaro aloqada o‘rganish masalasini yoritilgan. Unda har ikki predmetni o‘zaro aloqada

o'rganishning qulay, ixcham usullarini taklif etilgan. M.Suyunovning tadqiqot ishida esa, o'rta maktablarning yuqori sinf adabiyot darslarida san'at asarlari (arxitektura va tasviriy san'at) dan foydalanishning samarali usul va metodlari haqida fikr yuritilgan. K.Mavlonovning tadqiqot ishida ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi monografik yo'sinda o'rganilgan⁵. S.Kambarovning ilmiy izlanishlarida adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida integratsiyalab o'qitish, bunda adabiy asarlarni tasviriy san'at, musiqa, teatr, kino san'ati, amaliy san'at namunalari bilan qiyoslab o'rganish yo'llari tadqiq etilgan⁶.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida G.I.Belenkiy, V.N.Maksimova, I.D.Zverev, N.I.Kudryashev, K.P.Koroleva, Ye.D. Demyasheva, N.I.Zaporojes, P.G.Kulagin, N.A.Loshkarayeva, V.G.Mireskaya, T.G.Penya kabi olimlarning gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish masalasi bo'yicha olib borgan izlanishlarida adabiyot va tarix, tarix va san'at, adabiyot va musiqa fanlarini o'zaro aloqada o'rganishning o'quvchilar bilim va qobiliyatlarini kamol toptirishdagi o'rni chuqur asoslab berilgan.

Xorijlik olimlardan T.Astin, R.Jonson, F.Alixander, Sh.Sharon, G.Kleyner, L.Peter, D.Jonsonlarning ishlarida adabiyotni so'z san'ati sifatida pedagogik-psixologik jihatdan integrativ yondashuv asosida tahlil qilishga doir nazariy-metodik qarashlari mavjud.

Biroq adabiyot o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish innovatsion mexanizmining ishlab chiqilmaganligi, o'quvchilarda dunyo hodisalarini o'zaro bog'liqlik va yaxlitlikda tushunish, kasbiy hamda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalaridan foydalanishning metodik shart-sharoitlari yaxlit ochib berilmaganligi mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasida "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

yo'zuvchi hayoti va ijodini o'rganishda turli fanlarga oid manbalardan foydalanishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

matn ustida ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilarni fanlararo integratsiyaga asoslangan tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, kreativ qobiliyatini o'stirish, lug'at bilan ishlash malakalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

⁵ Мавлонова К.М. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 158 б.

⁶ Kambarova S.I. Adabiyotni fan va san'at turi sifatida sifatida o'qitishning konseptual asoslari. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 206 b.

lirik asarlarni chuqur idrok qilishning muhim vositasi sifatida musiqa va tasviriy san'at asarlaridan foydalanish usullarini aniqlash;

adabiy-nazariy ma'lumotlar, yozuvchining badiiy mahoratini o'rgatish mashg'uloti va sinfdan tashqari tadbirlarda ona tili, tarix, xorijiy tillar, matematika fani materiallari va xorijiy texnologiyalarga asoslangan fanlararo integratsiyadan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf va akademik litsey adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Namangan, Farg'ona, Andijon viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablarining 708 nafar va akademik litseylarining 181 nafar, jami 889 nafar o'quvchilari respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqot predmetini umumiy ta'lim maktablari va akademik litsey adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, taqqoslash, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey adabiyot darslarida o'quvchilarda komil inson tarbiyasiga oid gumanistik g'oyalarni qaror toptirish, o'quvchilarga asosiy nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlaridan fan va amaliyot, madaniyat, ishlab chiqarishning murakkab topshiriqlarini hal qilish yo'llari ta'limning ijodiy, hissiy-emotsional, xulq-atvor omillari bilan chambarchas bog'liq ekanligi pedagogik-psixologik jihatdan asoslab berilgan;

yo'zuvchi hayoti va ijodini fanlararo integratsiya asosida o'rganishning metodik ta'minoti o'quvchilarda atrof-alam haqidagi bilimlarni kengaytirishga doir inversion, akmelogik, emperik va kognitiv yondashuvlarni seminar, sayohat, video, onlayn, taqdimot, binar darslar mazmuniga, bilim oluvchilarning kreativ, mantiqiy tafakkur va nostandart, intellektual qobiliyatlarini hamda ma'naviy-axloqiy komillik fazilatlarini adabiy ta'lim jarayonida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga muvofiq lashtirish asosida takomillashtirilgan;

adabiyot darslarida innovatsion ta'limning fanlararo integratsiyaga asoslangan matn ustida ishlash mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning tadqiqotchilik ("Jajji tadqiqotlar", "So'z va surat", "Sehri barmoqlar", "Erkin yozish"), matnni tushunish, adabiy tahlil, mantiqiy tafakkur, ijodiy fikrlash bilan bog'liq kreativ qobiliyati, lug'at ustida ishlash malaka-ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari innovatsion dars shakllari va texnologiyalarga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan;

lirik asarlarni chuqur idrok qilishning muhim vositasi sifatida integrativ texnologiyalar ("Qo'shiqlar bekati", "Moziyga sayohat", "Birgalikda kuylaymiz") ni o'quv muhitiga optimallashtirish, adabiy-nazariy ma'lumotlar, yozuvchining badiiy mahoratini o'rgatish mashg'uloti va sinfdan tashqari tadbirlarda boshqa fan materiallari va xorijiy texnologiyalar uyg'unligidagi fanlararo integratsiyadan foydalanish usullari takomillashtirilgan;

xorijiy va milliy o'qitishning paradigmalari, fanlararo integratsiyaning mazmun-mohiyati, usullari, shakl va vositalari tahliliga doir, o'zaro aloqadorlik

mazmunidagi materiallardan foydalanishning pedagogik-psixologik, badiiy-estetik va ta'limiy-tarbiyaviy ta'lim me'yorlariga tayanib dars tashkil etishning ilmiy-metodik tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf va akademik litsey adabiyot darslarida fanlararo integratsiyaning mazmun-mohiyati, usullari, shakl va vositalari tahlil qilinib, o'zaro aloqadorlik mazmunidagi materiallardan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlangan;

adabiyot darsi va darsdan tashqari tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida "Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rgatish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish" nomli monografiya chop ettirilgan;

innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan adabiy ta'lim jarayonida yozuvchi hayoti va ijodini turli fanlarga oid materiallardan foydalangan holda o'rgatish namunalari ishlab chiqilgan;

adabiy ta'lim jarayonida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni fanlararo integratsiyaga asoslangan tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish va ularning kreativ qobiliyatini o'stirish, lug'at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

integrallashgan sinfdan tashqari tadbirlar – adabiyot to'garagi, adabiy kecha, adabiyot haftaligi, kitobxonlar anjumani, adabiy uchrashuv, adabiy sayohatlarni bir necha fan o'qituvchilari hamkorligida uyushtirish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilgan va chop ettirilgan;

"Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli darslik chop ettirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Dissertatsiya ishida qo'llangan yondashuv va usullar doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarni rasmiy manbalardan olinganligi, tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish orqali turli fanlarga oid qo'shimcha materiallar asosida o'quvchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning ilmiy-metodik tizimi ishlab chiqilganligi, yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish, matn ustida ishlash, lug'at ishi, adabiy asar tahlili mashg'ulotlari misolida ularni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, kreativ qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari nazariy jihatdan dalillangani, pedagogik-psixologik xususiyatlarining asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati taqdim etilayotgan fanlararo integratsiya mazmunidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalari, metodik tavsiyalar, integrallashgan sinfdan tashqari tadbirlar namunalari o'quvchilarning so'z san'atiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, adabiyot fani o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun adabiyot o'qitish metodikasi fanidan maxsus kurs, dastur va darsliklar, metodik qo'llanmalar yaratishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslariga doir tadqiqot natijalari asosida:

umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey adabiyot darslarida o'quvchilarda komil inson tarbiyasiga oid gumanistik g'oyalarni qaror toptirish, o'quvchilarga asosiy nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlaridan fan va amaliyot, madaniyat, ishlab chiqarishning murakkab topshiriqlarini hal qilish yo'llari ta'limning ijodiy, hissiy-emotsional, xulq-atvor omillari bilan chambarchas bog'liq ekanligi pedagogik-psixologik jihatdan asoslab berilgan taklif va tavsiyalardan "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish dasturi" doirasida amalga oshirilgan 2019-yil 10-dekabrda tasdiqlangan 591-son "Umumiy o'rta ta'limning milliy dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 25-sentabrdagi 01/11-01/6-795-son ma'lumotnomasi). Natijada, adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishga oid tajribalarning tadrijiy takomili va hozirgi kundagi ko'p qirrali imkoniyatlari boyitilgan;

yozuvchi hayoti va ijodini fanlararo integratsiya asosida o'rganishning metodik ta'minoti o'quvchilarda atrof-olam haqidagi bilimlarni kengaytirishga doir inversion, akmelogik, emperik va kognitiv yondashuvlarni seminar, sayohat, video, onlayn, taqdimot, binar darslar mazmuniga, bilim oluvchilarning kreativ, mantiqiy tafakkur va nostandart, intellektual qobiliyatlarini hamda ma'naviy-axloqiy komillik fazilatlarini adabiy ta'lim jarayonida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan to'xtam va xulosalar 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish bakalavriat yo'nalishi uchun "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'i, 438414-raqamli guvohnoma). Natijada, fanlararo integratsiyaning intensivligini ta'minlashda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosidagi dars shakllarining samaradorligini oshirishga erishilgan;

lirik asarlarni chuqur idrok qilishning muhim vositasi sifatida integrativ texnologiyalar ("Qo'shiqlar bekati", "Moziyga sayohat", "Birgalikda kuylaymiz") ni o'quv muhitiga optimallashtirish, adabiy-nazariy ma'lumotlar, yozuvchining badiiy mahoratini o'rgatish mashg'uloti va sinfdan tashqari tadbirlarda boshqa fan materiallari va xorijiy texnologiyalar uyg'unligidagi fanlararo integratsiyadan foydalanish usullarini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish bakalavriat yo'nalishi uchun "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'i, 438414-raqamli guvohnoma). Natijada, o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, ularning intellektual, kreativ fikrlash salohiyatini oshirish, yuqori kasbiy va tayanch kompetensiyalarni egallashga oid ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirish usullari imkoni oshirilgan;

lirik asarlarni chuqur idrok qilishning muhim vositasi sifatida integrativ texnologiyalar ("Qo'shiqlar bekati", "Moziyga sayohat", "Birgalikda kuylaymiz") ni o'quv muhitiga optimallashtirish, adabiy-nazariy ma'lumotlar, yozuvchining

badiiy mahoratini o'rgatish mashg'uloti va sinfdan tashqari tadbirlarda boshqa fan materiallari va xorijiy texnologiyalar uyg'unligidagi fanlararo integratsiyadan foydalanish usullari takomillashtirilgan o'rinlardan adabiyot fani o'qituvchilari uchun metodik ko'rsatmalar, uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 25-sentabrdagi 01/11-01/6-795-son ma'lumotnomasi). Natijada, adabiyot, musiqa, tasviriy san'atning o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro integratsiyasini to'laroq tushunishga xizmat qiladigan texnologiyalarni ishlab chiqish asosida lirik asarlarini o'rgatish metodikasining pedagogik imkoniyatlari kengaytirilgan;

xorijiy va milliy o'qitishning paradigmalari, fanlararo integratsiyaning mazmun-mohiyati, usullari, shakl va vositalari tahliliga doir, o'zaro aloqadorlik mazmunidagi materiallardan foydalanishning pedagogik-psixologik, badiiy-estetik va ta'limiy-tarbiyaviy ta'lim me'yorlariga tayanib dars tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish bakalavriat yo'nalishi uchun “Adabiyot o'qitish metodikasi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'i, 438414-raqamli guvohnoma). Natijada, adabiy-nazariy ma'lumot, yozuvchining badiiy mahoratini o'rgatish, sinfdan tashqari tadbirlar jarayonini fanlararo va xorijiy texnologiyalar integratsiyasi asosidagi dars ishlanma va metodik tavsiyalar ishlab chiqish orqali takomillashtirishga zamin yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 13 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 45 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta monografiya, 2 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta, jumladan, 13 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 243 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi

uch fasldan tashkil topgan. Birinchi fasl *“Fanlararo integratsiya tushunchasining ilmiy-metodik talqini va pedagogik-psixologik tavsifi”* deb nomlangan. Bu faslda fanlararo integratsiya tushunchasining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari, uning pedagogik-psixologik tavsifi, metodik va metodologik asoslari haqida umumiy xulosalar bayon etilgan. Keng qamrovli bu muammoning nazariy jihatlarini yoritilgan ilmiy adabiyotlar, hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘rganilib, ularning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan.

Q.Yo‘ldoshev to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Cheksiz olamdagi katta-kichik har bir narsa o‘zaro bog‘liqlikda yaratilgani va biri boshqasining mavjudligini ta’minlab turgani uchun ham dunyoni bilishning uyushtirilgan pedagogik shakli bo‘lmish ta’lim jarayonida ana shu uzviylik, chambars aloqadorlik hisobga olinishi lozim. O‘zga insonlar ruhiyatidagi tovlanishlarni anglash asosida o‘quvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan adabiy ta’limda ham fanlararo aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot o‘qitishda samaradorlikka erishish uchun uning maktabda o‘qitiladigan o‘zga o‘quv fanlari bilan aloqasini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur”⁷.

“INTEGRATSIYA – (lot. integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan) – 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalovchi tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish”⁸, “bu har qanday qismlarni, elementlarni bir butun sifatida birlashtirish”⁹, “rivojlanish jarayonining ilgari bir xil bo‘lmagan qismlar, elementlarni bir butunlikda birlashtirish bilan bog‘liq tomonidir”¹⁰, “O‘zlashtirilgan bilimlarning har xil aspektda ochilishi, masalan, biror badiiy asar mazmunidagi voqea-hodisalarning ham geografik, ham biologik, ham botanik, ham psixologik bilimlarga tayanilgan holda va insoniy tuyg‘ular asosida ochib berilishi shakllanib kelayotgan shaxsning fikrlash, his qilish, qayg‘udosh bo‘lish singari jihatlardan rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi”¹¹.

Fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish masalasiga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Ya.A.Komenskiy grammatika va falsafani, falsafa va adabiyotni, D.Lokk esa, tarix bilan geografiyani o‘zaro aloqada o‘rganish haqida fikr yuritgan. I.Gerbart, A.Disterveglar tomonidan o‘z vaqtida fanlar o‘rtasidagi chegaralarni kamaytirish, ularni o‘zaro aloqada o‘rganish masalasi tadqiq qilingan. Rossiyada fanlararo integratsiyaning ahamiyatini V.F.Odoyevskiy, K.D.Ushinskiy, P.P.Vaxterov, P.F.Kapterelarning izlanishlarida asoslangan.

XX asrning 50-60-yillarida AQSHda tarix, geografiya, fuqaroshunoslik fanlarining elementlarini o‘z ichiga olgan “Jamiyat fanlari” kursi tashkil etilgan.

⁷ Йўлдошев Қ. Адабиёт дарсларида фанлараро алоқанинг ўрни. Ўзбек тили таълими жараёнида фанлараро боғланиш масалалари. “Ўзбек тили” доимий анжумани саккизинчи йиғилиши материаллари. – Тошкент, 2005. – Б.10.

⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.179.

⁹ Кондаков Н.И. Мантикий луғат-маълумотнома. – М.: Наука, 1975.

¹⁰ Фалсафий энциклопедик луғат. – М.: Энциклопедия, 1983.

¹¹ Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikas. Darslik. 1-kitob. – Toshkent.: Innovatsiya – Ziyo, 2022. – B.49.

Polshada esa, “Madaniyat” deb nomlangan umumlashgan, Rossiyada jamiyatshunoslik va tabiatshunoslik fanlarini o‘z ichiga birlashtirgan madaniyat tarixi kursi sinovdan o‘tkazilgan. Dunyoning 180 dan ortiq mamlakatlaridagi 10.000 dan ortiq maktablar a‘zo bo‘lgan YUNESKO loyiha maktablarida integrallashgan darslar tashkil etilgan. Respublikamizda 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab “Tarbiya” fanining joriy qilinishi, Milliy o‘quv dasturi, “2020-2025-yillarda ijod maktablari faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi”sida bu masala yechimiga jiddiy e‘tibor qaratilishi, Davlat test markazi imtihonlari savollari tarkibiga integrativ mazmundagi topshiriqlarning kiritilayotganligini ushbu izlanishlarning natijasi sifatida baholash mumkin.

Respublikamizda ham A.Zunnunov, A.Aliyev, Sh.Yusupova, B.Abdullayeva, V.Qodirov, O.Yoqubjonova, R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Fozilova, M.Suyunov, D.To‘xliyeva, N.Abdullayeva kabi olimlarning tadqiqot va metodik qo‘llanmalarida bu muammoning metodologik-didaktik, falsafiy, metodik asoslari haqida fikr yuritilgan.

“Fanlararo integratsiya” tushunchasining mohiyati va uning pedagogik kategoriya sifatidagi o‘rni haqida turlicha qarashlar mavjud. I.N.Cherkes-Zade, N.A.Sorokin, D.M.Kiryushkin kabi tadqiqotchilar fanlararo integratsiya didaktik tomondan ta‘limning ilmiy va tushunarli bo‘lishini oshirishga yordam beradi, – deb hisoblasa, N.F.Fedorova fanlararo integratsiya ta‘limning izchilligi didaktik tamoyilining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi, N.S.Antonov fanlararo integratsiyani “ta‘lim jarayonining o‘ziga xos tuzilishi” sifatida belgilaydi. Olimlarning katta guruhi (I.D.Zverev, K.P.Koroleva, P.G.Kulagin, N.G.Kazanskiy, kabi) fanlararo integratsiyani ta‘limning izchilligi didaktik tamoyiliga kiritadilar, G.I.Belenkiy uni “bu tamoyilni ifodalovchi boshqa bir ko‘rinish (modifikatsiya)dir” deb hisoblaydi. I.D.Zverev, V.N.Maksimovalarning ta‘kidlashicha, “fanlararo integratsiya mustaqil tamoyil sifatidagi o‘rni bilanoq o‘zining tuzilishi jihatdan vazifasini bajaradi; o‘quv darsliklari, dasturlari, rejalari tuzilishiga, ta‘limning shakl va metodlari uchun mazmun tanlashga ta‘sir ko‘rsatadi¹². Fanlararo integratsiya ta‘rifining ko‘pligi uning ko‘p vazifaliligi va birlashtiruvchi yaxlitligi bilan izohlanadi.

Bizningcha ham, G.I.Belenkiyning fanlararo integratsiyani tushunishi bilan shu ma‘noda kelishish zarurki, “o‘quv-tarbiya jarayonida foydalaniladigan fanlar elementlari mazmuniy va tuzilishi vazifasining bunday yaxlit birligi bilimlarni umumlashtirish, izchillashtirish va mustahkamlashga, shu bilan birga, shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishiga, yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi”¹³.

Fan bilan san‘atning dialektik aloqasi, fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, gneseologik, germensevtik, funksional, ijtimoiy vazifasi to‘g‘risidagi ta‘limotlarga asosan umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, akademik litsey ta‘limi jarayonidagi gumanitar fanlarni o‘qitishda fanlararo integratsiyasini amalga oshirish asosini tashkil etuvchi o‘zaro aloqasi quyidagi uch jihat: mazmun mushtarakligi, ta‘lim jarayonida bajaradigan vazifalari yaqinligi, voqelikni idrok etish usullarining

¹² Зверев И.Д., Максимова В.Н. Межпредметные связи в современной школе. – М.: Педагогика, 1981. – С.52.

¹³ Беленький Г.И. О сущности и видах межпредметных связей. – В кн.: Некоторые теоретические и практические аспекты межпредметных связей. – М., 1982. – С.8.

o'xshashligida namoyon bo'ladi. Bu jihatlar fanlararo integratsiya o'qitishning pedagogik-psixologik tabiatiga hamohang ekanligini ko'rsatadi.

Didaktik nuqtayi nazardan o'quv jarayoni bir-biridan ajralmas uchta – o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish qismdan iboratdir. Shuning uchun bilishning “jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan praktikaga – haqiqatni bilishning, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo‘li ana shundaydir”, – degan nazariyasini maktab o'quvchilarining o'quv – bilish faoliyatiga tatbiq etish mumkin.

“Adabiyotning boshqa fanlar bilan integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi faslda adabiyotning O'zbekiston tarixi, tasviriy san'at, musiqa, ona tili, informatika va axborot texnologiyalari, geografiya, xorijiy tillar fanlari bilan bog'liqligi, ularni o'zaro integratsiyada o'rganishning o'rni va ahamiyati asoslanib, amaliyotda foydalanish usullari yoritilgan.

Adabiyot mavjud voqelikni badiiy obrazlarda ifodalashi jihatidan tarix fani bilan nihoyatda yaqindir. Adabiyot o'qitishda asosiy hisoblangan tarixiylik tamoyilida ijodning rivoji – yozuvchi ijtimoiy hayot yo'lining qismi, asari u yoki bu davr adabiyoti taraqqiyotidagi hodisa sifatida o'rganiladi. Binobarin, bu tamoyil yozuvchi ijodini san'atning boshqa turlari bilan ham bog'lik holda o'rganishni taqozo qiladi. Shu bois, yozuvchining hayoti va ijodini o'rganishda tarix darsliklaridagi aniq tarixiy dalillarga asoslanish, ijodkorning memuar asarlari, zamondoshlari xotiralari, u haqida yaratilgan tarixiy, badiiy va boshqa san'at asarlardan o'rinli foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida san'atning an'anaviy uch turi (adabiyot, tasviriy san'at, musiqa) fan sifatida o'rgatiladi. Har bir san'at turining alohida manbalari mavjud bo'lsa-da, ularning asosiy tilini belgilaydigan xususiyat mavjud. Bu obrazdir. “Hayotni obrazlar orqali aks ettirishi jihatidan san'at turlari o'rtasida umumiylik, o'xshashlik, mushtaraklik mavjud bo'lsa-da, obraz yaratish jarayonida san'atning har bir turi uning faqat o'zigagina xos bo'lgan ifoda vositalaridan foydalanadi. Bunday ifoda vositalari, odatda, san'at turlarining “o'z tili” deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot tili haykaltaroshlik, me'morlik, rassomlik, musiqa tillaridan farq qiladi. Rassomlikda badiiy obraz surat va kartina vositasida yaratiladi, shunga ko'ra, rassom “tili” deganda, chiziqlar, rang, yorug'lik soyasi va kompozitsiyasini tushunamiz. Xoreografiyaning “tili” esa inson tanasining o'ziga xos ifodali harakatidir.

Adabiyotda til, kompozitsiya, ohang, ritm kabilar vositasida badiiy obraz yaratiladi. Bunday vositalarning jamul jamisiz adabiy asar yashay olmaydi. Shu sababli bu vositalarning jami – nutq, ritm, ohang, kompozitsiya – badiiy adabiyot “tili”dir. Shunga ko'ra, badiiy adabiyot “so'z san'ati” deb ham yuritiladi. Adabiyot so'z vositasi bilan obraz yaratganligi sababli san'atning boshqa turlariga nisbatan hayotni va insonni mumkin qadar to'laroq ifodalash imkoniga ega”¹⁴.

Bu faslda adabiy ta'lim jarayonida san'at asarlaridan foydalanish bola tafakkuri ikki, ba'zan uch turdagi san'at asarlarini qabul qilish qobiliyatini namoyon etishi, emotsional muhit va ruhni hosil qilishi, o'rganilayotgan matnni chuqur tushunishga yordam berishi, tasavvurlarni kengaytirish, fahmlash, tafakkur

¹⁴ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Олий ўқув юрглариининг филология (ўзбек тили ва адабиёти) факультетлари талабалари (бакалаврият босқичи) учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.31-32.

va his-tuyg'ularning rivojlanishiga xizmat qilishi, eng muhimi, inson rivojlangan tafakkur, fantaziyaga ega bo'lmagan tasavvur bilan ijodiy fikrlay olmasligini anglatishi, o'quvchilarning badiiy didini shakllantirishda, estetik jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishiga asoslanib, ularni ta'lim-tarbiyaning turli bosqichlarida, o'rni bilan amalga oshirilgandagina kutilgan natijaga erishish, aks holda, dars, tadbir zerikarli, tartibsiz bo'lishi ham mumkinligi izohlangan, uni amalga oshirish uchun qo'yiladigan didaktik talablar ko'rsatilgan, zarur taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiyaning asosiy vazifasini ta'minlovchi o'qitishni tashkil etishning turli xil shakllari: fanlar uyg'unligi yo'nalishidagi uy vazifalari topshirish, takrorlash-mustahkamlash, ma'ruza, seminar, taqdimot, sayohat, video, anjuman, bahs, onlayn, binar darslari tashkil etish; integrallashgan adabiyot to'garagi, adabiy kecha, adabiyot haftaligi, kitobxonlar anjumani, adabiy uchrashuv, adabiy sayohatlar uyushtirish kabi sinfdan tashqari tadbir shakllaridan keng foydalanish zarur.

Bobning navbatdagi fasli *“Umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik litseylarda fanlararo integratsiyadan foydalanishning mavjud holati”* deb nomlangan. Bu faslda tadqiq etilayotgan ilmiy muammoning yo'lga qo'yilishi holati, o'quv dasturi va darsliklarida aks ettirilishi qiyosiy tahlil qilinib, yutuq va kamchiliklarga munosabat bildirilgan, amaliy tajribalarni takomillashtirish yuzasidan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Respublikamizdagi qator umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik litseylaridagi adabiyot fani o'qituvchilari bilan suhbat, tajriba-sinov davomida o'tkazilgan darslarni tahlil qilish, so'rovnoma savollariga olingan javoblar natijasida tadqiq etilayotgan muammoning o'quv yurtlaridagi tipik holati, yutuq va kamchiliklar, dastur talablarini amalga oshirishdagi muammolar va ularning asosiy sabablari aniqlangan.

O'qituvchilar faoliyatini kuzatish, o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni tasdiqlashga asos bo'ldiki, adabiyot o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi, o'quv dasturi *“Fanlararo aloqa”* bo'limi materiallarining darsliklarga mos kelmasligi holatlarining uchrashi; dasturda taklif qilingan musiqa va tasviriy san'atga doir materiallarning kamligi; fanlararo integratsiyadan foydalanish yo'llariga doir ilmiy-metodik adabiyot, tavsiyalarning yetarli emasligi, mavjudlarini ham topish qiyinligi va ularning ma'naviy eskirganligi; zamonaviy axborot kommunikatsion vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi va uning imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarining ishlab chiqilishi talab darajasida emasligi; yuqori sinflarda tasviriy san'at va musiqa asarlariga kam murojaat qilinishi, ko'rsatilayotgan muammo maktab metodik birlashma yig'ilishlarida yuzaki muhokama qilinishi, adabiyot fani o'qitilishiga kam soat ajratilishi, o'qituvchilar bu sohada muntazam izlanish malakasini chuqur egallamaganliklari, darslarning bir qolipda, ko'proq an'anaviy shaklda olib borilishi kabilar fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishda jiddiy muammolarga sabab bo'layotganligi aniqlangan.

Adabiyot fani o'quv dasturi tahlili unda fanlararo integratsiya uchun tavsiya etilayotgan materiallarni aniqlashtirish, hajmini belgilash, ularni topish manbalarini ko'rsatish, amalga oshirishning mavjud imkoniyatlaridan talab

darajasida foydalanish tizimini yaratishni hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi"da filologiya blokidagi, xususan, adabiyot fanini matematika, fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, tabiyot va geografiya, informatika va axborot texnologiyalari, tarix fanlari bilan o'zaro aloqadorligi, uni "umumiy o'rta ta'limning boshqa fanlari bilan integratsiyasini yo'lga qo'yish" adabiyot o'qitishni rivojlantirishning strategik maqsadi sifatida belgilanganligi ahamiyatlidir. Shuningdek, "Fanlar tavsifi va integratsiyasi" bo'limining barcha fanlar o'qitilishi mazmuniga tatbiq etilishi belgilanganligini bu muammoning yechimi haqidagi eng maqbul yo'llardan biri sifatida baholash mumkin.

"O'zbekiston tarixi", "Tasviriy san'at", "Musiqqa" fanlari amaldagi o'quv dasturi tahlili ular mazmunida tizimlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga rioya etish, mavzularni tizimlashtirish va juda ko'p qo'llangan ilmiy atamalarni soddalashtirish, fanlararo va mavzulararo integratsiyani takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Keyingi yillarda yaratilgan adabiyot darsliklari zamon talablari, shakl va mazmun jihatdan boyitilganligi, to'ldirilganligi, takomillashtirilganligi; metodik boshqaruv qismiga innovatsion yondashuvga asoslangan o'zgartirishlar kiritilganligi bilan e'tiborlidir. Mavzular o'quv rejasi, dasturi talablari asosida joylashtirilganligi: matnlarning belgilangan dars soatlari kesimida taqsimlanishi, matn va unga hamohang tasvir-lavhalarning uyg'un shaklda tasvirlanishi kabi pedagogik, psixologik, metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega tajribadan foydalanilgan. "Savol va topshiriqlar" ning alohida-alohida rang va belgilar orqali farqlanganligi; ularda o'quvchilarning matn bilan chuqurroq tanishish, badiiy asar mohiyatini idrok etish, tushunish, hayot bilan bog'lash; uni tahlil qila olish, mustaqil, ijodiy ishlash malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalar aks ettirilganligi; "Bilib oling" ruknida katta hajmdagi ma'lumotlarni ixcham ko'rinishda yetkazishda maxsus jadvallardan foydalanilganligi adabiyotning mazmuni – o'zagini aks ettirishi – o'zaro hamohangligini ifodalash uchun xizmat qilgan¹⁵.

Ushbu darsliklarda fanlararo integratsiya masalasi yoritilishini uch yo'nalish: matn, nazariy ma'lumot va savol va topshiriqlar tarkibida yoritilganligi aniqlangan. Tahlil natijalari ko'rsatdiki, IX, X, XI sinf "Adabiyot" darslik va darslik-majmualarida jami 789 ta savol va topshiriqlar berilgan bo'lib, shulardan 83 tasida fanlararo integratsiya mazmuni ifodalangan. Jumladan, 10 tasi adabiyotning tarix, 41 tasi ona tili, 7 tasi musiqqa, 3 tasi biologiya, 5 tasi informatika va axborot texnologiyalari, 5 tasi zoologiya, 4 tasi geografiya, 4 tasi kino san'ati, 2 tasi jismoniy tarbiya, 2 tasi ma'naviyat va ekologiya fanlari bilan o'zaro integratsiyasini ko'rsatishga xizmat qilgan. Adabiyotning tasviriy san'at (ijodiy izlanishlarni talab qiluvchi), teatr, qisman bo'lsa-da, matematika, chet tili, iqtisod, tarbiya, texnologiya fanlari bilan integratsiyasini aks ettiruvchi savol yoki topshiriq, musavvir yoki bastakor nomi, u yaratgan musiqqa asarlari haqida ma'lumotlar uchramaydi.

¹⁵ Yo'ldochyev Q. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent, O'zbekiston NMIU, 2019. – 368 b., Adabiyot [Matn]: darslik-majmua (10-sinф). 1-, 2-qism / B.To'xliyev [va boshq.], – Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 184 b., B.To'xliyev. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua (11-sinф). 1-, 2-qism / B.To'xliyev [va boshq.], – Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200 b.

Ko‘rinadiki, adabiyotning tarix, tasviriy san‘at, musiqa, geografiya, informatika va axborot texnologiyalari fanlari bilan integratsiyasini ifodalovchi materiallar, savol va topshiriqlar juda oz, mavjudlari ham oson, mazmunan o‘xshash bo‘lib, ularning o‘quvchilar dunyoqarashi kengayishi, tafakkur va didining o‘sishi, tanqidiy va kreativ fikrlashi, iste’dodi qirralarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qilishi yetarlicha hisobga olinmagan. Shuningdek, “O‘zbekiston tarixi”, “Tasviriy san‘at”, “Musiqqa” darsliklari takomili tarixi, Mustaqillik yillarida o‘qitish tizimi yangi, sifatli bosqichga ko‘tarilganligi yangi avlod darsliklari va ularda fanlararo integratsiyadan foydalanishning aks etishi tahlili misolida yoritilgan. Darsliklarning o‘quv-metodik ta‘minotini boyitish, takomillashtirishda ta‘lim jarayonida belgilangan fanlarning o‘zaro integratsiyasi va ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanishni hisobga olish, ularni o‘quv dasturi va darsliklarida yetarli darajada aks ettirish muhimligi izohlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yozuvchi tarjimayi holini o‘rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanishning innovatsion texnologiyalari”** deb nomlangan. Bobning *“Yozuvchi tarjimayi holini o‘rgatishda fanlararo integratsiya mazmunidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars shakllaridan foydalanish”* deb nomlangan birinchi faslida Navoiy va Bobur tarjimayi holini o‘rgatishda fanlararo integratsiya mazmunidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan, amaliy tajriba sinovidan o‘tgan dars shakllari, ulardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ko‘rsatilgan. Ikki buyuk alloma shaxsi, adabiy merosi ta‘lim tizimi bosqichlarida uzluksizlik va uzviylik asosida o‘rgatilishi uchun ajratilgan dars soati tahlilga tortilgan va munosabat bildirilgan.

Adabiyot fani o‘qituvchisi bilishi va amalda foydalanishi zarur bo‘lgan ilmiy metodik tadqiqotlar, qo‘llanma va qo‘shimcha manbalar sifatida o‘zining va zamondoshlarining asarlari, ularning siymosi yaratilgan tasviriy san‘at va badiiy asarlar, ulardan uyg‘un holda foydalanish, tarjimayi hol haqida unutilmas tasavvur hosil qiladigan manbalarda bayon qilingan ilmiy xulosalarni o‘quvchilar ongiga soddalashtirilgan, ixcham tarzda yetkazish usullari bayon etilgan.

Ko‘p yillar davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida yuqoridagi talab va manbalarni chuqur o‘rganish, amaliyotga tadbiiq etish tajribasi Navoiy tarjimayi holini o‘rganishga bag‘ishlangan “Kichik guruhlarda ishlash” metodi asosidagi integrativ mashg‘ulot misolida sinovdan o‘tkazildi. Bu metod o‘qitish samaradorligini oshirish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, tanqidiy va kreativ fikrlashga o‘rgatish, vaqtni tejash, barcha ta‘lim oluvchilarning faolligini ta‘minlash, o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyatini yaratish, jamoaviylikni shakllantirishda samarali natijalar berishi asoslangan.

11-sinfda Navoiy hayoti va ijodining so‘nggi davrini o‘rgatishga bag‘ishlangan darsning maqsadi 5-11-sinfda o‘tilgan mavzularni eslatish, mustahkamlash va izchillikda davom ettirish ekanligi sababli Namangan shahridagi 75-maktabning 11-“A” sinfida tadqiqotchining taklif va tavsiyalari asosida o‘tkazilgan darsda “Navoiy saboqlari” mavzusida ko‘rgazmalar burchagi tashkil etildi. O‘qituvchining qisqa kirish so‘zidan so‘ng o‘quvchilar shoir tarjimayi holi bosqichlarini yoritishga hamohang “Zukkolik”, “Donolik”, “Buyuklik”, “Mangulik” deb nomlangan kichik guruhlariga bo‘lindi. Ramzlarni ifodalovchi rasmlar mazmunida shoirning “Umr bahori”, “Umr yozi”, “Umr kuzi”,

“Umr qishi”, shiorlarda esa, shu davrlar faoliyatiga mos misralar ifodalandi. Guruhlar oldindan berilgan topshiriqlar asosida interfaol metodlar asosidagi “Klasterlar taqdimoti”, “Videolavhalar sharhi”, “So‘z va surat”, “Navoiy saboqlari” texnologiyalari asosida egallagan bilimlarini namoyish etdilar. Darsning yakunlovchi qismida tajriba sinf o‘quvchilari tomonidan jamlangan Navoiyga bag‘ishlangan she’rlardan namunalar tinglandi.

Boburning tarjimayi holini o‘rgatishga doir seminar darsi uch bosqichdan iborat bo‘ldi:

I. Tayyorlov bosqichi:

1. Tashkiliy qism. Tajriba va nazorat sinf o‘quvchilarini zarur adabiyotlar bilan oldindan tanishtirildi. Albom-slayd, elektron taqdimot, rasmiy topishmoq, test, jadval, xaritalar tayyorlash va ulardagi rasmlarni sharhlash uchun tarixiy, badiiy asarlardan parcha ko‘chirish topshirildi.

2. Seminar darsining mavzusi va vazifalari aniqlandi. Mavzu: “Bobur – buyuk tarixiy shaxs, davlat arbobi va atoqli so‘z san’atkori. Adabiyot va san’atda Bobur timsoli”.

Seminar darsining vazifasi qilib Boburning tarjimayi holini fanlararo integratsiyaga asoslangan innovatsion texnologiyalar vositasida chuqur o‘rgatish; uning o‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyoti va madaniyatini rivojlantirishdagi xizmatlari, insoniy fazilatlarini o‘quvchilar ongiga singdirish masalasi qo‘yildi.

3. Seminar darsi talabi, mezoni va yakka tartibdagi savol hamda ijodiy topshiriqlar darsdan bir oy oldin e‘lon qilindi.

II. Seminar darsini o‘tkazish. Bu darsni tashkil etish uchun tayyorgarlik ishlari sinfda va darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarda amalga oshirildi. Dars uchun 2 soat vaqt ajratildi va unda fanlararo integratsiya asosidagi evristik, ma‘ruza va suhbat metodidan foydalanildi.

III. Seminar darsi natijalarini aniqlash. O‘quvchilarning “Yulduzli tunlar”, “Boburiynoma” va “Boburnoma” asarlari asosida berilgan mustaqil ishlarni qanday bajarilganliklari tahlil qilindi.

Bobning *“Yozuvchi tarjimayi holini o‘rgatish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari”* deb nomlangan ikkinchi faslida adabiy ta‘lim jarayonida, jumladan, yozuvchi tarjimayi holini o‘rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlari xususida so‘z borgan.

XXI asr ta‘limining rivojlanishi informatika va axborot texnologiyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng qo‘llash bilan bog‘liqdir. Adabiy ta‘lim jarayonida internetning asosiy didaktik xususiyatlari (axborotlarni katta tezlikda uzatish imkoniyati, interfaollikni ta‘minlaydigan telekommunikatsiyaning ikki tomonlama xarakterda ekanligi, gipermatn va multimedia bilan ishlash imkoniyati mavjudligi, murakkab tuzilishli axborotlar bilan ishlashda do‘stona interfeysning ta‘minlanishi), masofali o‘qitishning qulayliklari (o‘quvchilarning uzluksiz ta‘lim olishlarini ta‘minlash va ta‘limning turli shakllarini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarining kattaligi, o‘quv-uslubiy ta‘minotning turli-tuman shaklda ekanligi va ular tinglovchilarning qayerdaligidan qat‘i nazar ta‘lim jarayoni samaradorligini ko‘tarishga imkon berishi), masofali ta‘lim uchun tayyorlangan elektron darsliklarning ilmiy ma‘lumotlar har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan shakllari (o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal

(matn) shakli, o‘quv materiallari verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklida, multimedia (multimedia – ko‘p axborotli) qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumotlar uch o‘lchamli grafik ko‘rinishida, ovoqli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shakli; taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o‘quvchini “ekran olamida” stereonusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shakli)dan foydalanish integrativ ta’limning sifat va samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishi nazariy va amaliy tahlil etilgan.

Mashrab hayoti va ijodini o‘rgatish jarayonida adabiyot, tarix, geografiya, tasviriy san’at, musiqa, psixologiya fani o‘qituvchilari va guruh rahbari bilan hamkorlikda shoirning ona yurtidagi “Adiblar xiyoboni”, “Usmon Nosir xiyoboni”, Namangan davlat universiteti, Boborahim Mashrab bog‘i va shoirning uy-muzeyi, Mulla Bozor oxund maqbarasi, viloyat o‘lkashunoslik muzeyiga uyushtirilgan sayohat-dars materiallari, hozirgi Namangan adabiy muhiti, adabiyotshunos olimlari vakillari faoliyati va ularning asarlari; mashrabshunoslik yutuqlari, darsliklardagi manbalar asosida yaratilgan fanlararo integratsiya mazmunidagi “Unutmoq osonmas Sizlarni” mavzusida tayyorlangan videodarsni tashkil etish va ommalashtirish, onlayn dars shakllarini o‘tkazish imkoniyati yaratilganligi va Said Ahmadning tarjimai holini o‘rgatishga doir tayyorlangan slaydlar, ovoqli, video, animatsiya va qisman verbal shakldagi ko‘rgazmalar asosidagi taqdimot dars namunasini amalga oshirish usullari haqidagi amaliy tavsiya va dars ishlanmalari mazmuni bayon etilgan.

Bobning navbatdagi fasli *“Yozuvchi tarjimai holini o‘rgatishda geografik materiallardan foydalanish o‘rinlari”* deb nomlangan. Ushbu faslda adabiy ta’lim jarayonida, xususan, yozuvchi tarjimai holini o‘rgatishda geografiya fani materiallardan, jumladan, joy nomlari, ular bilan bog‘liq rivoyatlar va xaritadan darsning metodik ta’minoti sifatida foydalanish haqidagi fikr-mulohazalar, tavsiyalar bayon etilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi va akademik litsey o‘quv dasturida belgilangan o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillarining tarjimai holi, adabiy merosini o‘rgatish va imom al-Buxoriy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Davlatshoh Samarqandiy, Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Xo‘janazar Huvaydo, Munis Xorazmiy, Komil Xorazmiy, Majzub Namongoniy, Fazliy Namongoniy, Chustiy, Abulqosim Tusiy, Ro‘dakiy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviy, Shota Rustaveli kabi iste’dod sohiblari o‘zlarining nisba va taxalluslarini kindik qoni to‘kilgan yurt bilan bog‘lab, uning nomini dunyoga ma’lum mashhur qilganliklarini sharhlashda geografik manbalarga murojaat etish ehtiyoji mavjudligi va ulardan foydalanish dars samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishi masalasi adabiyot o‘qitish tajribasida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi izlanish, shaxsiy kuzatishlar asosida va tajriba sinf iqtidorli o‘quvchilari bilan hamkorlikda imom al-Buxoriy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Furqat tarjimai holini o‘rgatish jarayonida uchragan 400 tadan ortiq joy nomlarining ro‘yxatini jamlash, ularning sharhini tayyorlash va amalda foydalanish haqidagi tajriba, tavsiyalar haqida shu faslda fikr yuritilgan.

Yozuvchi tarjimayi holini o'rgatish darslarining keng qamrovliligini ta'minlashda joy nomlari, ular bilan bog'liq rivoyatlar va xaritadan darsning metodik ta'minoti sifatida foydalanish va tarix, geografiya, ona tili, tasviriy san'at, adabiyotshunoslik fanlaridan olingan bilim, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasi imkoniyatlari integratsiyasiga tayanish, fanlararo integratsiya lug'ati daftarini yuritish samarali natijalar berishi kuzatildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Adabiy asar tahlili va sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning shakl va usullari”** deb nomlangan. Bobning *“Innovatsion ta'limning fanlararo integratsiyaga asoslangan matn ustida ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish usullari”* nomli birinchi faslda “Jajji tadqiqotlar”, “So'z va surat”, “Sehrlil barmoqlar”, “Erkin yozish” texnologiyasi asosida matn ustida ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish va ularning kreativ qobiliyatini o'stirish, lug'at bilan ishlash malakalarini rivojlantirishning samarali usullari haqida so'z yurilgan.

Adabiy ta'lim jarayonida badiiy asarni tahlil qilish ham amaliy, ham nazariy jihatdan muhim masala hisoblanadi. M.Mirqosimova to'g'ri ko'rsatib berganidek: “Adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o'qishdan boshlanadi; o'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O'sha ta'sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo'llagan tasviriy vositalarga sirtidan ahamiyat berilmaydi, asosiy e'tibor o'qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi. Ammo tahlil jarayonida ana shu ma'nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o'rganiladi. Xilma-xil davrda yashab ijod etgan ijodkorlar yaratgan asarlarni badiiylik, hayotiylik va ta'sirchanlik asosida o'rganish maktab ta'limining bosh vazifasini belgilaydi”¹⁶.

Badiiy asarni o'qish, matn ustida ishlash, tahlil jarayonida badiiy asardagi ayrim tushunilishi qiyin bo'lgan so'z, iboralarga izoh berish, lug'at bilan ishlash o'quvchilarning o'rganilayotgan asarning g'oyaviy mazmunini chuqur anglab olishiga, so'z boyligini oshirishga, turmush haqidagi tushunchasini rivojlantirishga, borliqni idrok qilish qobiliyatini kamol toptirishga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi yuqori sinf va akademik litsey adabiyot darslarida o'rgatiladigan o'zbek mumtoz adabiyoti va “Padarkush”, “Abulfayzxon”, “Kecha va kunduz”, “O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”; “Qutlug' qon”, “Navoiy”; “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ulug'bek xazinasi” kabi tarixiy asarlar namunalari tahlil qilish jarayonida bu kabi usullarni qo'llashga ehtiyoj juda yuqori ekanligini ko'p yillik kuzatish va tajribalar tasdiqlaydi. Mazkur faslda Imom al-Buxoriy hadislari, Mashrab lirikasi, “Boburnoma”, “Qutlug' qon” romanidan olingan parcha matni ustida ishlash jarayonida ana shu usullarni qo'llash, “Qorako'z majnun” hikoyasi, “Yomg'ir yog'ar” she'ri matni ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishga oid tavsiyalarning amaliy tadbiri ko'rsatilgan.

“Lirik asarlar mohiyatini idrok qilishning muhim vositasi sifatida musiqa va tasviriy san'at asarlarini o'quv muhitiga omtimallashtirish texnologiyalari” nomli

¹⁶ Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Тошкент, Фан, 2006. – Б. 18.

navbatdagi faslda Navoiy va Boburning she'riy asarlari tahlilga tortilgan. Bunda musiqaning ayniqsa, mumtoz kuylarning kishilar ruhiyatiga ta'siri, o'quvchilar tasavvurida aniq obrazli manzaralar hosil qilishi, g'azalning g'oyaviy mazmunini ochish, darsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlash, aruz vaznida yozilgan she'rlarni ifodali o'qish ko'nikmasini mustahkamlash, estetik jihatdan tarbiyalash va adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, ularning mualliflari haqidagi tushunchalarni chuqurlashtirishdagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro integratsiyasini to'laroq tushunishga imkon yaratishi haqidagi tavsiyalar bayon etilgan.


Navbatdagi fasl *“Nazariy ma'lumot, yozuvchining badiiy mahoratini o'rgatish va integrallashgan sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning asosiy shakllari”* deb nomlangan. Bu faslda nazariy ma'lumot, jumladan, tuyuq janri, badiiy san'at namunalari va yozuvchining badiiy mahorati, uning asarlari tili xususiyatlarini o'rgatish va integrallashgan sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishning asosiy shakllari, ularni amalga oshirish usullari bayon etilgan.

Nazariy tushunchalarni o'rgatish badiiy asarni tahlil qilishning uzviy qismi sanalib, o'quvchilar bilimni boyitish bilan birga ularning nutqini o'stiradi, fikrini, tasavvurini rivojlantiradi, ularda obrazli tushunchalar hosil qilishga yordam beradi, fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey adabiyot darslarida o'rgatilishi rejalashtirilgan nazariy ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, adabiy asar tahlilining qo'shimcha adabiyotlar va fanlararo integratsiya mazmunidagi maxsus ijodiy topshiriqlar, binar dars loyihasi taqdimoti asosida amalga oshirilishi ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini dalillar asosida qiyoslash malakalarini rivojlantirish, matnni chuqurroq tushunish, yozma savodxonlikni oshirish, egallagan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish uchun yordam berishga xizmat qilishi sinovdan o'tgan tajribalar, tavsiyalar va dalillar asosida bayon etilgan.

Ko'p yillik tajriba va kuzatishlarimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, faqatgina darslik materiallari bilan cheklanish, o'quvchilarning qiziqishi va ijodkorligini ta'lim-tarbiyaning eng samarali usullari bilan uyg'unlashtira olmaslik natijasida o'quvchilar sinfdan tashqari tadbirlar vositasida o'z bilimni chuqurlashtirish, umumlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, xulq-atvoridagi ijobiy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatidan yetarlicha foydalanmayapti. Shularni hisobga olgan holda tadqiqotda integrallashgan (tarix, tasviriy san'at, musiqa, badiiy adabiyot, geografiya, biologiya, texnologiya, jismoniy tarbiya) sinfdan tashqari tadbirlar misolida uning ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash, sifat hamda samaradorligini yanada oshirish, iqtidorli o'quvchilarni kashf etishdagi o'rni amaliy tajriba va tavsiyalarga tayangan holda ko'rsatib berilgan.

“Yosh ekologlar”, “Go'zallik va nafosat”, “Chaqqon qo'llar” to'garagi a'zolari bilan hamkorlikda “Sab'ai sayyor” dostonini o'rgatish bo'yicha o'tkazilgan integrallashgan adabiyot to'garagi mashg'uloti “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB”, “Erkin yozish” kabi interfaol metodlar asosida tashkil etildi. Mashg'ulotning yakunlovchi qismida to'garak a'zolari tomonidan tayyorlangan “Tabiatni asraylik!”, “Yetti go'zal”, “Vatan kabi mangu Navoiy”, “Sab'ai sayyor” dostoni qahramonlari – adabiyot va san'atda” kabi mavzulardagi integrativ mustaqil-ijodiy ishlar namunalari ko'rgazmasi namoyishi o'tkazildi.

Integrallashgan adabiy sayohat bir necha fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda, avvaldan kelishilgan, rejalashtirilgan holda bahorgi ta'til davrida amalga oshirildi. Sayohat manzilini tanlashda uning integrativ manbalarni o'rganishni nazarda tutishi, o'quvchilar tafakkuri, tasavvuri, dunyoqarashini boyitishi, ma'naviy-ma'rifiy oziq berishiga ko'proq e'tibor qaratildi.



1-rasm. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish modeli

Shuningdek, tadqiqotchining tavsiyasi va hamkorligi asosida Namangan davlat universiteti akademik litseyida o'tkazilgan fanlararo integratsiya mazmunidagi suhbat, foydali maslahatlar, integrativ ijodiy ishlar ko'rgazmasi, intellektual-kognitiv o'yinlar, loyihalar, sahna ko'rinishlari namoyishiga asoslangan integrallashgan adabiyot haftaligi; o'quv yurti barcha fan o'qituvchi va o'quvchilari faol ishtirok etgan "Saxiy kitobxon" loyihasi asosidagi integrallashgan anjuman¹⁷, adabiy kecha kabi keng qamrovli sinfdan tashqari tadbirlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, kreativ fikrlash qobiliyati, mustaqil, ijodiy ishlash malakasi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun xizmat qilganligi yoritilgan.

Modelning umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik litsey ta'lim jarayoni amaliyotiga tatbiqi raqamlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi, ijtimoiy me'yorlariga rioya qiluvchi, faol fuqaro mavqeyiga ega, intellektual salohiyati rivojlangan komil insonlarni voyaga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va natijalari**" deb nomlangan. Uning "*Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va tashkiliy jihatlari*" nomli birinchi faslida o'tkazilgan tajribalar mazmuni, amal qilingan tamoyillar, savol-javoblar, yozma ish va maxsus ijodiy topshiriqlar tahlili muhokamaga tortilgan.

Tadqiqotning asoslovchi tajriba-sinov bosqichi (2010-2014-yillar)da falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik yo'nalishdagi va o'rganilayotgan muammoga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar o'rganib chiqilgan. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning mavjud holati kuzatilgan.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichi (2015-2020-yillar)da fanlararo integratsiya asosidagi seminar, sayohat, video, onlayn, taqdimot, binar dars shakli namunalari; "Qo'shiqlar bekati", "Moziyga sayohat", "Jajji tadqiqotlar", "So'z va surat", "Xosiyatli raqamlar", "Nuqtaning qudrati" texnologiyalari, integratsiyalashgan dars va darsdan tashqari tadbirlar (adabiyot haftaligi, adabiy kecha, adabiyot haftaligi, adabiy anjuman, adabiy uchrashuv, adabiy sayohat) ni tashkil etishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan tajriba-sinovdan o'tkazilgan.

Yakunlovchi tajriba-sinov bosqichi (2021-2023-yillar)da tajriba va nazorat sinflarida o'tkazilgan dars natijalari, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan. Erishilgan natijalar samaradorligi matematik-statistik tahlil metodi yordamida tahlil qilingan, umumlashtirilgan va nazariy qoidalarni amaliy natijalarga qiyoslash asosida xulosalar chiqarilgan.

Bobning ikkinchi fasli "*Tajriba-sinov natijalarining tahlili*" deb nomlangan bo'lib, unda tajriba va nazorat sinflaridan olingan natijalar samaradorligi umumlashtirilgan. Tajriba maydoni obykti sifatida Namangan, Farg'ona, Andijon viloyati umumiy o'rta ta'lim maktabi 708 nafar va akademik litseylarining 181 nafar, jami 889 nafar o'quvchilari tajriba-sinov ishlarida respondent sifatida ishtirok etganligi bayon qilingan.

Tajribaning yakuniy qismida statistik ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida oldindan belgilangan mezonlar bo'yicha adabiy ta'lim jarayonida

¹⁷ Abdullayev K.A. "Saxiy kitobxon" loyihasi asosidagi konferensiyani o'tkazishda fanlararo integratsiyadan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi, 2022. – №12. – B. 46-49., Tўlaboev Қ. КИТОБ – маънавий бойликлар дурдонаси. – Тошкент, Наврўз, 2018. – Б.193-196.

fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo'yicha o'qitish samaradorligi darajasini aniqlashga qaratilgan savolnoma natijalari hisobga olingan.

Quyida keltirilgan jadvallarda tajriba obyektlarida olingan natijalarning yakuniy miqdor ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

1-jadval

Tajriba va nazorat sinflarida fanlararo integratsiyaga asoslangan savol va topshiriqlar orqali umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik litsey o'quvchilari kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning qiyosiy tahlili natijalari

№	Savollar	Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari								Akademik litsey o'quvchilari							
		Tajriba sinfi				Nazorat sinfi				Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
		Jami o'quvchilar soni – 355 nafar				Jami o'quvchilar soni – 353 nafar				Jami o'quvchilar soni – 92 nafar				Jami o'quvchilar soni – 89 nafar			
		A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
1	“Qorako'z majnun” hikoyasidan olgan taassurotlaringizni rang tasvirlar vositasida ifodalang.	110	156	54	35	32	88	147	86	31	41	14	6	12	21	38	18
2	O'zingiz yoqtirgan qo'shiqlar, ularning muallifi, ijrochisi haqida elektron ro'yxat va to'plam tayyorlang.	107	158	52	38	33	88	149	83	27	40	12	13	8	22	34	25
3	Shoir va yozuvchilar, ularning asarlari asosida yaratilgan filmlarni sanang.	113	154	51	37	31	85	150	87	28	42	16	6	11	20	36	22
4	“Devona”, “qalandar”, “avliyo” so'zlarining ma'nosini lug'atlar yordamida aniqlang.	110	153	53	39	34	91	146	82	30	39	13	10	9	21	35	24
5	Buyuk allomalarimiz shaxsi haqida hikoya qiluvchi tarixiy, badiiy asarlar ro'yxatini tuzing.	107	156	55	37	30	89	151	83	26	43	15	8	10	19	34	26
6	Mashrab yurgan yo'llar xaritasini chizing.	113	159	53	30	32	87	145	89	32	39	16	5	11	23	35	20
7	Imom al-Buxoriy, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat nomi bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlarning qisqacha lug'atini tuzing.	108	155	54	38	33	90	149	81	27	41	14	10	9	20	38	22
8	Cho'pon otasi va akalarining o'limi uchun Boburdan o'ch olmaganligi (“Yulduzli tunlar”) va shoh Bahrom tomonidan jazolangan Dilorom-ning tirik qolishi (“Sab'ai sayyor”) dagi o'xshashlik va umumiylikni qanday izohlaysiz?	112	157	52	34	31	86	147	89	28	43	12	9	7	22	37	23
9	“Boburnoma” da “Mir Temuriy” atamasi shaklida uchragan qovun turi haqida nimalarni bilasiz?	110	155	51	39	33	87	151	82	30	38	14	10	13	24	37	15
10	Ona timsoli yaratilgan badiiy asarlar asosida “Onalar madhi” – “Onalar simfoniyasi” mavzusida audio-video to'plam shakllantiring.	109	157	53	36	30	86	145	92	29	42	13	8	10	18	34	27
11	Namanganlik shoir va yozuvchilardan kimlarni bilasiz?	111	153	55	36	31	89	148	85	31	40	15	6	8	19	38	24

12	“Birovga soʻzini bermaydigan errayim kampirning shoxi sinadi”, “Kampir chayon oʻrmlagandek seskandi”, “Bu bolani men emas, boʻri tuqqan”, “Kampir shu jilmaygancha ichidan muzi erimay osongina jon berdi” jumllarini izohlang.	107	159	50	39	34	90	147	82	28	44	12	8	9	23	33	24
13	Qahramonlar (Navoiy, Bobur, Mashrab, Farhod, Shirin, Saodat aya, Boʻrixon kabi) timsolini gavdalanitir.	110	156	56	33	32	89	149	83	30	41	16	5	12	19	39	19
14	Saodat aya Qorakoʻzni nima uchun “odamlardek aziz” deb hisoblaydi?	113	157	51	34	31	91	150	81	27	40	14	11	11	23	34	21
15	Soʻz sanʼati – adabiyotga munosabatingizni ifodalovchi ijodiy ishlaringizni namoyish eting (sheʼr, esse, rasm, kashtachilik, qoʻl mehnati namunalari, slayd, videolavhalar kabi).	111	155	53	36	33	87	148	85	31	43	13	5	8	20	38	23
16	“Oʻzbek adabiyotida yomgʻir timsoli” mavzusida jajji tadqiqot yarat.	109	156	55	35	32	85	146	90	29	40	15	8	12	22	36	19
Oʻrtachasi		110	156	53	36	32	88	148	85	29	41	14	8	10	21	36	22

Matematik-statistik metodning mohiyatiga koʻra dastlabki bosqichda adabiy taʼlim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari boʻyicha soʻrovnomalar yuzasidan tajriba va nazorat sinflarning yakuniy javoblari tanlanmalar sifatida belgilanib aʼlo, yaxshi, qoniqarli va qoniqarsiz darajalari boʻyicha variatsion qatorlarni hosil qilish mumkin.

Yuqoridagi jadval asosida tajriba-sinov obyektlari kesimida adabiy taʼlim jarayonida fanlararo integratsiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari boʻyicha yakuniy solishtirma tahlilni keltiramiz(2-jadval).

2-jadval

Adabiy taʼlim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlash boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim maktabi va akademik litsey oʻquvchilari qatnashgan tajriba-sinov natijalarining yakuniy solishtirma jadvali (hududlar kesimida)

Tajriba guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilari					Akademik litsey oʻquvchilari				
		Aʼlo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Jami	Aʼlo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Jami
Tajriba guruhi	Namangan	36	54	19	10	119	9	14	6	3	32
	Fargʻona	38	53	16	11	118	10	13	4	2	29
	Andijon	36	49	18	15	118	10	14	4	3	31
	Jami	110	156	53	36	355	29	41	14	8	92
	Jami	110	156	53	36	355	29	41	14	8	92
Nazorat guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Aʼlo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Jami	Aʼlo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Jami
	Namangan	10	29	52	27	118	4	8	12	7	31
	Fargʻona	13	28	49	27	117	4	6	11	7	28
	Andijon	9	31	47	31	118	2	7	13	8	30
	Jami	32	88	148	85	353	10	21	36	22	89

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba sinfidagi o‘quvchilarda nazorat sinfidagi o‘quvchilarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

Bu jadvallar asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqich natijalarini qiyosiy tahlili keltirilgan (3-, 4-jadval).

3-jadval

Adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari qatnashgan tajriba-sinov natijalarining qiyosiy tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)			
		A‘lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Tajriba guruhi	355	110 31	156 44	53 15	36 10
Nazorat guruhi	353	32 9	88 25	148 42	85 24


4-jadval

Adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha akademik litsey o‘quvchilari qatnashgan tajriba-sinov natijalarining qiyosiy tahlili (son va foizlarda)


Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)			
		A‘lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Tajriba guruhi	92	29 32	41 45	14 15	8 8
Nazorat guruhi	89	10 11	21 23	36 41	22 25

Ta’kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pirson metodlari tanlandi. Unga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi.

Bu diagrammalarda quyidagi ko‘rinishni oldi:



2-rasm. Adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha umumiy o‘rta



3-rasm. Adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha akademik litsey

**ta'lim maktabi o'quvchilari qatnashgan
tajriba-sinov natijalari diagrammasi**

**o'quvchilari qatnashgan tajriba-sinov
natijalarining diagrammasi**

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda tajriba yakunida statistik ko'rsatkichlarning o'rta qiymati, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari quyidagi jadvalda aks ettirildi (5-jadval).

5-jadval

**Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning
ilmiy-metodik asoslari bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik
litsey o'quvchilari qatnashgan tajriba-sinov natijalarinig statistik
ko'rsatkichlari**

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
3,96	3,19	0,8584	0,8139	1,25	1,50	11,32	706	126,53	0,10	0,09
4,01	3,20	0,7899	0,8800	2,31	3,12	6,23	179	31,88	0,18	0,19

Yuqoridagi natijalarga asoslanib umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bo'yicha tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{X}=3,96$; $\bar{Y}=3,19$; $\Delta_x=0,10$; $\Delta_y=0,09$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{3,96 - 0,10}{3,19 + 0,09} = \frac{3,86}{3,28} \approx 1,18 > 1;$$

Bilish darajasining ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{ood} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (3,96 - 0,10) - (3,19 - 0,09) = 3,86 - 3,10 = 0,76 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonining noldan kattaligi bilan ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo'yicha tajriba guruhi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan xulosalar tajriba-sinov ishlari samarador (15,4%) ekanligini va belgilangan maqsad tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib akademik litsey o'quvchilari qatnashgan tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz. Bizga ma'lumki, $\bar{X}=4,01$; $\bar{Y}=3,20$; $\Delta_x=0,18$; $\Delta_y=0,19$ ga teng. Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yc\bar{o}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{4,01 - 0,18}{3,20 + 0,19} = \frac{3,83}{3,39} \approx 1,13 > 1;$$

Bilish darajasining ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\bar{o}\bar{o}\bar{o}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (4,01 - 0,18) - (3,20 - 0,19) = 3,83 - 3,01 = 0,82 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonining noldan kattaligi bilan ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo'yicha akademik litsey o'quvchilari qatnashgan tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan xulosalar tajriba-sinov ishlari samarador (16,2%) ekanligini va belgilangan maqsad tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Demak, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini va belgilangan maqsad tasdiqlanganini ko'rsatadi.

XULOSA

Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning yoshlarni intellektual salohiyatli, yuqori kasbiy va tayanch kompetensiyalarga ega, kreativ fikrlaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini o'zaro bog'liqlik va yaxlitlikda tushunadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini e'zozlash fazilatlarini mujassamlashgan har tomonlama barkamol shaxslar etib voyaga yetkazish vositasi sifatidagi ko'p qirrali o'rni va muhim ahamiyatini zamonaviy ta'limning zaruriy sharti sifatida e'tirof etish mumkin.

2. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaning xususiy-metodik jihati hozirgi kun talablari nuqtayi nazaridan globallashuv sharoitida adabiyot fani bilan san'at turlarining o'zaro gnoseologik, germensevnik, funksional, ijtimoiy faoliyati aloqalariga asoslanadi.

3. Adabiyot o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning zaruriy shartini amalga oshirish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi, o'quv dasturi "Fanlararo aloqa" bo'limi materiallarining darsliklarga mos kelmasligi holatlarining uchrashi; fanlararo integratsiyadan foydalanishga doir ilmiy-metodik adabiyot, tavsiyalarning yetarli emasligi, mavjudlari ham ma'naviy eskirganligi; zamonaviy axborot kommunikatsion vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi talab darajasida emasligi; yuqori sinflarda tasviriy san'at va musiqa asarlariga kam murojaat qilinishi, o'qituvchilar bu sohada muntazam izlanish malakasini chuqur egallamaganliklari kabilar fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishda jiddiy muammolardandir.

4. Adabiyot darslarida yozuvchi tarjimayi holini o'rgatishda o'zining va zamondoshlarining asarlari, ilmiy manbalar, O'zbekiston tarixi materiallari, tarixiy,

badiiy, tasviriy san'at va musiqa asarlari, informatika va axborot texnologiyalari, geografiya fani materiallaridan foydalanishda innovatsion pedagogik texnologiya va fanlararo integratsiyaga asoslangan seminar, sayohat, video, taqdimot, onlayn, binar dars shakllarini qo'llash o'quvchilarning bilimini boyitish, tafakkurini, tasavvurini, dunyoqarashini kengaytirish; mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Alisher Navoiy tarjimayi holini o'rgatishda fanlararo integratsiyaga asoslangan "Klasterlar taqdimoti", "So'z va surat", "Videolavhalar sharhi", "Navoiy saboqlari" shartlaridan iborat "Kichik guruhlarda ishlash" metodidan foydalanish, Boburning tarjimayi holini o'rgatishda "O'zbekiston tarixi" va "Adabiyot" darsligi, "Boburnoma", "Yulduzli tunlar", "Boburiynoma" asarlari materiallarini qiyosiy tahlillash usuliga murojaat qilish, Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o'rgatish jarayonida esa, bir necha fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda shoirning ona yurtidagi "Adiblar xiyoboni", "Usmon Nosir xiyoboni", Mashrab bog'i va shoirning uy-muzeyiga sayohat-dars – axborot kommunikatsion texnologiyasi vositasida onlayn dars uyushtirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi, tanqidiy va kreativ fikrlashga o'rgatadi, vaqtni tejaydi, barcha ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlaydi, o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyatini yaratadi, jamoaviylikni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

